

TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASH IMKONIYATLARII

Ibodullayev Shohboz To'liqin o'g'li

“O‘zmilliybank” AJ Transformatsion ofis, loyiha kuratori

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

ORCID: 0000-0002-3885-711X

E-mail: sh_ibodullayev@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada tijorat banklarining raqobatbardoshligi tushunchasi to'liq o'rganilgan, shuningdek bunga oid mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Banklar raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili sifatida bank passivlarining barqarorligi va talab qilib olinadigan depozitlarning me'yor darajasi tanlab olingan. Tadqiqot doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlarning transmilliy banklari – Bank of America, Paribasbank va O‘zbekiston Respublikasining yirik aksiyadorlik tijorat banklari O‘zmilliybank, Asakabank hamda Sanoatqurilishbanklarining tahliliy ma'lumotlari o'rganilib, ulardagi passivlar barqarorligi va raqobatbardoshlik darajasi tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: bank, raqobatbardoshlik, passiv, kredit, foiz, depozit, qimmatli qog'oz, kapital rentabelligi, brutto depozitlar, talab qilib olinguncha depozitlar, banklararo kreditlar, inflyatsiya.

Аннотация

В данной статье полностью изучено понятие конкурентоспособности коммерческих банков, а также проанализированы мнения отечественных и зарубежных ученых по этому поводу. В качестве основного фактора обеспечения конкурентоспособности банков выбраны стабильность пассивов банка и нормативный уровень депозитов до востребования. В рамках исследования были изучены аналитические данные транснациональных банков развитых стран мира - Bank of America, Paribasbank и крупных акционерных коммерческих банков Республики Узбекистан - Узнацбанка, Асака банка и Промстройбанка, проведен анализ уровня устойчивости и конкурентоспособности их пассивов.

Ключевые слова: банк, конкурентоспособность, пассив, кредит, процент, депозит, ценная бумага, рентабельность капитала, валовые депозиты, депозиты до востребования, межбанковские кредиты, инфляция.

Abstract

This article thoroughly examines the concept of commercial banks' competitiveness and analyzes the opinions of domestic and foreign scholars on this matter. The main factor in ensuring the competitiveness of banks is the stability of the bank's liabilities and the regulatory level of demand deposits. Within the framework of the study, the analytical data of transnational banks of developed countries - Bank of America, Paribasbank, and major joint-stock commercial banks of the Republic of Uzbekistan - Uzmilliybank, Asaka Bank, and Sanoatqurilish bank were studied, and an analysis of the level of stability and competitiveness of their liabilities was conducted.

Keywords: bank, competitiveness, passive, credit, interest, deposit, securities, return on capital, gross deposits, demand deposits, interbank loans, inflation.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 - 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ¹moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish hamda davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish vazifalari keltirib o‘tilgan. [1]

Fitch Ratings xalqaro reyting agentligining 2024 yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston bo‘yicha konferensiyasida ta’kidlashicha “O‘zbekiston hukumati 2025-yil oxirigacha kamida uchta bankni xorijiy strategik investorlarga sotish niyatida. Bu nodavlat banklarning sektor aktivlaridagi ulushini 60 foizgacha oshiradi (2023-yil yakunida 32 foiz edi). Islohotlar, shuningdek, banklarning korporativ boshqaruvi va risklarni boshqarish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, prudensial tartibga solishni takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi” [2]

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish va bunda banklarning passivlari barqarorligiga erishish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

N. Kazarenkova tijorat bankining raqobatbardoshligiga quyidagicha ta’rif beradi: “Bankning raqobatbardoshligi – bu kredit tashkilotining raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish va ularni bozorga olib chiqish, mijozlarning barcha talablariga javob beradigan ishonchli va zamonaviy bank, degan ijobiy nufuzni (imij) shakllantirishning potensial va real imkoniyatidir”. [3]

Mazkur ta’rifda tijorat bankining raqobatbardoshligi faqat raqobatbardosh mahsulotlarni taklif qilish orqali mijozlarning ishonchini qozonish nuqtai-nazaridan talqin qilinmoqda. Bu ma’lum darajada amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan talqin. Chunki, tijorat bankining moliya bozorlaridagi nufuzini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, bank xizmatlarining mijoz uchun qulayligi hisoblanadi. Ushbu qulaylik bank mahsulotlarining sifati va bahosida namoyon bo‘ladi. Biroq, N. Kazarenkova tijorat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>

bankning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omillar ekanligini ta'rifda aks ettirmagan. Holbuki, tijorat banki raqobatbardosh mahsulotni yaratishi va uni mijozlarga o'z vaqtida taklif qilishi uchun yetarli darajada moliyaviy barqarorlikka va likvidlilikka ega bo'lishi kerak. Masalan, tijorat banki raqobatbardosh kredit mahsulotini yaratdi. Lekin, bankda balanslashmagan likvidlilik muammosi bo'lganligi uchun kreditni mijozga o'z vaqtida chiqarib bera olmaydi.

A.Berger, S. Choul, O.Guedhami va R.Romanning tijorat banki rahbariyatining davlat tomonidan qutqarish bo'yicha beriladigan kafolatga ishonishi o'ta yuqori darajadagi risklarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkinligi xususidagi xulosasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.[4]

Darhaqiqat, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlari O'zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatimizda kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan yuqori riskli va prundensial normativlarga zid bo'lgan ba'zi bir amaliyotlarning amalga oshirilishi banklar uchun likvidlilik riskini keltirib chiqarmoqda. Shuning bilan bir qatorda, davlat banklarining doimiy ravishda hukumat mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlanishi banklararo raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

L.Selikovanning xulosasiga ko'ra, likvidlilik, to'lovga qobillik, rentabellik tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim mezonlar hisoblanadi.[5]

Haqiqatdan ham, tijorat bankini yetarli darajada likvidli bo'lmasligi u orqali o'tadigan to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash imkonini bermaydi. Bu esa, uning reputatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va, shuning asosida, raqobatbardoshligiga putur yetkazadi.


O'zbekistonlik iqtisodchi olim F.Xolmamatov doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlash jarayonida O'zbekiston bank tizimining barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator dolzarb muammolarni (banklarning kapital bazasining mustahkam emasligi, kapitalning diversifikatsiya darajasining yuqori emasligi, kapitalni boshqarish samaradorligi sifatining pastligi, bank tizimi likvidliligi ko'rsatkichining barqaror emasligi va katta diapazonda o'zgarishi, likvidlilik riskining samarali boshqarish tizimining talab darajasida emasligi) aniqlagan. [6]

Yuqorida keltirib o'tilgan iqtisodiy muammolarning tijorat banklarimizda mavjud ekanligi, banklarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aynan tijorat banklarimizning investitsion jozibadorligi past bo'lishiga va xorijiy investorlarda kam qiziqish uyg'otayotganligini yuqoridagi sabablar bilan bog'lash mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo iqtisodiyotida yuz bergan jahon moliyaviy inqirozidan so'ng banklar amaliyotida Bazel standartini takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Banklar kapitalini takomillashtirishga qaratilgan Bazel-III standartining muhim talablaridan biri – bu qo'shimcha zaxiralarni tashkil qilish hisobiga nazorat kapitalining yetarililigini 13 foizga yetkazish yo'li bilan tijorat banklarining barqarorlik darajasini oshirish hisoblanadi [7].

Qayd etish joizki, tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim koʻrsatkichlardan biri boʻlib, nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi hisoblanadi.



1-rasm. Deutsche Bank (GFR), Bank of America banki (AQSH) va BNP Paribas bankida (Fransiya) nazorat kapitalining aktivlarga nisbatan darajasi, foizda¹

1-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki:

- Deutsche Bankda nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega boʻlgan. Bu esa, uning raqobatbardoshligini taʼminlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- Bank of America bankida nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda 8,5 foizdan past boʻlmagan barqaror darajada boʻlgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini taʼminlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- BNP Paribas bankida nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega boʻlgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, uning raqobatbardoshligini taʼminlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida tijorat banklarining raqobatbardoshligini taʼminlashning muhim metodologik jihatlaridan biri boʻlib, banklarning oddiy aksiyalarining investitsion jozibadorligini taʼminlash orqali ularning bozor baholarini yuqori boʻlishiga erishilganligi hisoblanadi.

Zamonaviy bank amaliyotida majburiyatlar tarkibida kapitalning ulushi qanchalik yuqori boʻlishi, bu bankning reputatsiyasiga yaxshi taʼsir koʻrsatadi va bankning raqobatbardoshligi jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini baholash uchun bir vaqtning oʻzida bir nechta koʻrsatkichlardan foydalaniladi. Ana shunday muhim koʻrsatkichlardan biri –

¹ Rasm muallif tomonidan Deutsche Bank, Bank of America banki va BNP Paribas bankning yillik hisobotlarining maʼlumotlari asosida tuzilgan

bu bank aktivlarining rentabelligi ko‘rsatkichidir. Ushbu ko‘rsatkich sof foydaning bank aktivlarining jami summasiga nisbatan darajasini ko‘rsatadi.


E’tirof etish joizki, sof foizli marja ko‘rsatkichi tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Sof foizli marja ko‘rsatkichini hisoblash uchun sof foizli daromad summasi (foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o‘rtasidagi farq summasi) brutto aktivlar summasiga bo‘linadi va olingan natija 100 foizga ko‘paytiriladi. Ushbu ko‘rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan me’yoriy darajasi 4,5 foizni tashkil etadi.

1-jadval.

Deutsche Bank (GFR), Bank of America banki (AQSH) va BNP Paribas bankida (Fransiya) sof foizli marjaning darajasi, foizda¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Deutsche Bank	0,9	0,8	1,0	1,0	0,9
Bank of America banki	1,5	1,4	1,7	1,8	1,7
BNP Paribas	0,8	0,7	0,8	0,7	1,2



2- rasm. TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankda brutto aktivlarning rentabellik darajasi², (foizda)

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki:

- Deutsche Bankda sof foizli marjaning darajasi 2020-2024-yillarda barqaror darajada saqlanib qolgani holda, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga oshgan (Deutsche Bankda sof foizli marjaning darajasini 2023-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi mazkur davrda sof foizli daromadning o‘shish sur’atini brutto aktivlarning o‘shish sur’atidan yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi);

¹ Jadval muallif tomonidan Deutsche Bank, Bank of America banki va BNP Paribas bankning yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

² Rasm TIF Milliy banki, Asakabank va Sanoatqurilishbankning yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

- Bank of America bankida nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda 8,5 foizdan past bo‘lmagan barqaror darajada bo‘lgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta‘minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- BNP Paribas bankida sof foizli marjaning darajasi 2021-2023-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta‘minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Shu o‘rinda e‘tirof etish joizki, aktivlarning rentabellik darajasi tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

2-rasmdan quyidagilar aniq ko‘rinadi:


- TIF Milliy banki aktivlarining rentabelligi 2020 va 2021-yillarda sezilarli darajada past bo‘lgan bo‘lsada, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 0,8 foizli punktga oshgan;

- Asakabankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2024-yillarda juda past bo‘lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur‘atda pasaygan. Bu esa, uning raqobatbardoshligini ta‘minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

- Sanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi tahlil davrida beqaror bo‘lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini ta‘minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Ta‘kidlash joizki, tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar bo‘lib, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari va muammoli kreditlarning darajasi hisoblanadi.

Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki, O‘zsanoatqurilishbankda kreditlardan ko‘riladigan zararlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021- 2024-yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori darajada oshgan.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i, foizda ¹

¹ Rasmlar muallif tomonidan Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

3-rasm ma'lumotlaridan ko'ringayki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 2021-2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan. Buning ustiga, muammoli kreditlarning ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- tijorat banki rahbariyatining davlat tomonidan qutqarish bo'yicha beriladigan kafolatga ishonishi o'ta yuqori darajadagi risklarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkinligi xususidagi xulosasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;
- likvidlilik, to'lovga qobillik, rentabellik tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim mezonlar hisoblanadi;
- Deutsche Bankda nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi uning raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;
- Bank of America bankida nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024-yillarda 8,5 foizdan past bo'lmagan barqaror darajada bo'lgan;
- BNP Paribas bankida nazorat kapitalining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2021-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;
- tahlil obyekti bo'lgan transmilliy banklarda sof foizli marjaning darajasi 2020-2024-yillarda barqaror darajada saqlanib qolgani holda, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;
- respublikamizning yirik tijorat banklarining raqobatbardoshligining tahlili ko'rsatdiki, TIF Milliy banki aktivlarining rentabelligi 2020 va 2021-yillarda sezilarli darajada past bo'lgan bo'lsada, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 0,8 foizli punktga oshgan;
- Asakabankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2024-yillarda juda past bo'lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan; Sanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi tahlil davrida beqaror bo'lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;
- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 2021-2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lgani holda, muammoli kreditlarning ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

1. Tijorat banklari nazorat kapitalining o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida birinchidan, kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining o'zgarishi bilan nazorat kapitalining passivlar hajmidagi salmog'ining o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim; ikkinchidan, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalar

hajmini oshirish orqali daromad keltiradigan risksiz aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmogʻini oshirish kerak; uchinchidan, oddiy va imtiyozli aksiyalarning investitsion jozibadorligini taʼminlash orqali emission daromadning nazorat kapitali hajmidagi salmogʻini oshirish va ushbu koʻrsatkichning barqarorligini taʼminlash zarur.

Ayniqsa, tijorat banklari birinchi darajali kapitalining yetarlilik darajasini pasayishi tijorat banklarining toʻlov qobiliyatini taʼminlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, tijorat banklarining birinchi darajali kapitali barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topadi va bank ogʻir moliyaviy ahvolda tushib qolganida, bankni ushbu ogʻir holatdan olib chiqish imkonini beradigan asosiy manba hisoblanadi.

2. Sof foizli marjaning meʼyoriy darajasini taʼminlash maqsadida, birinchidan, sof foizli daromadlar bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasining oʻsish surʼati oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlash yoʻli bilan sof foydaning darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, banklararo kreditlarning passivlar hajmidagi salmogʻini pasaytirish va nazorat kapitalining passivlar hajmidagi salmogʻini oshirish asosida foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar oʻrtasidagi barqaror nisbatni taʼminlash zarur; uchinchidan, foizsiz xarajatlarning foizsiz daromadlarga nisbatan nisbatan past va barqaror darajasini taʼminlash lozim; toʻrtinchidan, sof foizli spread koʻrsatkichining inflyatsiya darajasi hisobga olingan holdagi meʼyoriy darajasini taʼminlagan holda, sof foizli spread hisobidan muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmogʻini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>

2. <https://www.fitchratings.com/research/banks/uzbek-banking-reforms-gain-traction-may-face-delays-25-03-2024>.

3. Kazarenkova N. P. Konkurentosposobnost kommercheskogo banka na regionalnom rinke kreditnix uslug naseleniyu: avtoref. dis. kand. ekon. nauk; Orlovskiy gosudarstvenniy texnicheskiy universitet. — Orel, 2006. - P. 11.

4. Berger A. N., Ghoul S., Guedhami, O. and Roman, R. A. Internationalization and Bank Risk. Management Science, 2017. - № 63 (7). – R. 2283–2301.

5. Selikova, L.V. Konkurentosposobnost subyektov rinka i mexanizm yeye otsenki//Vestnik Moskovskogo universiteta. Ser.6 Ekonomika. – 2000. – N2. – P.57-67.

6. Xolmamatov F.K. Oʻzbekisto Respublikasi bank tizimining barqarorligini oshirish yoʻllari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 90 b.

7. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications> .



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**